

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYANI RIVOJLANTIRISH

S.T.Abdurahmanov.

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD, sohib_1978@inbox.ru

D.Nazarova.

Namangan davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi

diloramnamdu-@inbox.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida ekologik ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar, amaliy faoliyatga asoslangan mashg'ulotlar va fanlararo integratsiya imkoniyatlari o'rganildi. Tajriba-sinov ishlari umumta'lim maktablarining 3–4-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilib, tajriba va nazorat guruhlari natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar ekologik ta'limni tizimli va maqsadli tashkil etish o'quvchilarning ekologik bilimi, ongi va madaniyatini rivojlantirishda yuqori samara berishini ko'rsatdi. Maqolada keltirilgan xulosa va takliflar boshlang'ich ta'lim tizimida ekologik ta'lim-tarbiyani takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ekologik ta'lim-tarbiya, boshlang'ich sinf o'quvchilari, ekologik ong, ekologik madaniyat, interfaol metodlar, amaliy faoliyat, fanlararo integratsiya.

РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ СРЕДИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: В данной статье раскрываются педагогические основы развития экологического образования и воспитания у учащихся начальных классов. В процессе исследования изучены возможности применения современных интерактивных методов, практико-ориентированных занятий и межпредметной интеграции в экологическом образовании. Опытно-экспериментальная работа проводилась с участием учащихся 3–4 классов общеобразовательных школ, при этом результаты экспериментальной и контрольной групп были подвергнуты сравнительному анализу. Полученные данные показали, что системная и целенаправленная организация экологического образования способствует повышению уровня экологических знаний, сознания и культуры учащихся. Представленные в статье выводы и рекомендации имеют практическую значимость для совершенствования экологического образования в начальной школе.

Ключевые слова: Экологическое образование и воспитание, учащиеся начальных классов, экологическое сознание, экологическая культура, интерактивные методы, практическая деятельность, межпредметная интеграция

DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL EDUCATION AMONG ELEMENTARY STUDENTS

Abstract: This article examines the pedagogical foundations for developing environmental education and upbringing among primary school students. The study explores

the effectiveness of modern interactive teaching methods, practice-oriented activities, and interdisciplinary integration in environmental education. The experimental research was conducted with the participation of 3rd and 4th grade students, and a comparative analysis of the results of the experimental and control groups was carried out. The findings demonstrate that a systematic and goal-oriented organization of environmental education significantly enhances students' environmental knowledge, awareness, and culture. The conclusions and recommendations presented in the article can be used to improve environmental education practices in primary schools.

Keywords: *Environmental education, primary school students, environmental awareness, environmental culture, interactive methods, practical activities, interdisciplinary integration*

KIRISH

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy rivoji jamiyatda ekologik ma'naviyatni shakllantirish bilan ham chambarchas bog'liq. Zero, ekologik tarbiya imkoniyatlari darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, kelajakdagi amaliy ishlar ko'lamini samarali bo'ladi. Xalqimizning moddiy farovonligi va turmush darajasini yaxshilash, atrof muhitni muhofaza qilish mamlakatimizda umumxalq ishiga aylangan.

Tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi ekologiyaga oid bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berishni uzluksiz ta'lim jarayonida olib borish maqsadga muvofiq. Uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berishda tabiat va uning oldidagi onglik munosabatlarga tayaniladi. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlarida «ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish» deb belgilab berilgani boshlang'ich, umumiy o'rta hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quvchilariga fanlararo ekologik tarbiya berish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ekologiyaga oid muammolar aksariyat manbalarda ijtimoiy-falsafiy, siyosiy, huquqiy jihatlardan tahlil qilingan. Ekologiyaning ijtimoiyfalsafiy muammolarini S.Mamashokirov, B.Ziyomuhamedov, M.Ismoilov, Q.Abirqulov, Yu.SHodimetov, H.Salomovalar hamda O'zbekiston Respublikasida siyosiy ekologiya masalalarini

G.Abdullaeva, M.Boxodirov, I.Sizovalar tahlil qilganlar. V.Katasanovning «Velikaya derjava ili ekologicheskaya koloniya?» asarida ekologik muammolarning kelib chiqish sabablari haqida tahliliy ma'lumotlar, R.Mamatqulov asarlarida xalq donishmandchiligining nazariy metodologik manbalari ekologiya nuqtai nazaridan o'rganilgan. Ekologiyani huquqiy asoslarini J.Xolmo'minov, D.Aripov va I.Mamarayimovlar tahlil qilganlar. N.Aimbetov murakkab ekologik sharoitda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida modellashtirishni, B.Ataniyazov esa O'zbekistonning yer unumdorligi asosida ekologik iqtisodiy tizimni rivojlantirishni boshqarish bilan bog'liq tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Uzluksiz ta'lim jarayonida ekologik tarbiyaga oid muammolar yuzasidan ham qator tadqiqotlar o'tkazilgan. Umumiy o'rta ta'limda I.Zverev, Lerner, A.Zaxlebniy, M.Hoshimova, E.Turdiqulov, Sh.Avazov, A.Haitov, N.Nishonova, V.Sattorov, G.Ogorodnikov, M.Nishonboeva, P.Kulikova, A.Xojamberdiev, A.O'razaliev, T.Kucher, M.Gildenkova va B.Qulturaevlar aniq hamda tabiiy fanlarni o'rganish jarayonida ekologik tarbiyalash masalalariga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Sh.Majitova bo'lajak o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligini «Pedagogika» va «Ekologiya» o'quv kurslarini o'qitish misolida rivojlantirishning pedagogik asoslarini, A.Shamshetova o'qituvchi ekologik ongini shakllantirishning psixologik xususiyatlarini, ya'ni turli fan o'qituvchilarning tabiatga jadalligi ko'rsatkichlarini, M.Aliqulova bo'lajak o'qituvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishni tahlil qilgan. Hozirgi davr o'quvchilarini fanlararo ekologik tarbiyalashning tizim shaklidagi uzviylik yo'llarini ilmiy-pedagogik jihatdan ishlab chiqishni va uni ta'lim-tarbiya amaliyotiga joriy etishni taqozo etadi. SHuningdek, o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berishning nazariy va amaliy asoslari maxsus tadqiq etilmaganligi bois respublikamizda o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berish yuzasidan ilmiy asoslangan pedagogik g'oyalar, xulosa va tavsiyalarga muhtojlik sezilmoqda. Davlatimiz kelajagi va manfaatlari uchun o'quvchilarni fanlararo ekologik tarbiyalash bugungi kun talabi ekanligi nuqtai nazaridan tadqiqot ishlari olib

borilmaganligi singari vaziyatlar mazkur muammo bilan bog'liq alohida tadqiqot mavzusini tanlashimizga asos bo'ldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan maxsus ishlab chiqilgan pedagogik tizimning samaradorligi o'rganildi. Tajriba-sinov ishlari umumta'lim maktablarining 3-4-sinflarida amalga oshirilib, unda jami 60 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Ular shartli ravishda tajriba guruhi (30 nafar) va nazorat guruhiga (30 nafar) ajratildi.

Tadqiqotning dastlabki (diagnostik) bosqichida o'quvchilarning ekologik bilim, munosabat va amaliy ko'nikmalar darajasi aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasida boshlang'ich ko'rsatkichlar deyarli farq qilmadi. O'quvchilarning aksariyatida ekologik tushunchalar yuzaki xarakterga ega bo'lib, tabiatni muhofaza qilishga oid amaliy faoliyatga qiziqish past darajada ekani kuzatildi.

Tajriba bosqichida tajriba guruhida interfaol metodlar (rolli o'yinlar, "aqliy hujum", klaster), ekologik mazmundagi multimedialli taqdimotlar, tabiat qo'ynidagi kuzatuv mashg'ulotlari, shuningdek, fanlararo integratsiya asosida darslar tashkil etildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy dars usullari saqlab qolindi.

Tajriba-sinov ishlari yakunida o'tkazilgan nazorat baholash natijalari quyidagi jadvalda aks ettirildi.

1-jadval.

O'quvchilarda ekologik tarbiya darajasining o'zgarishi (%)

Daraja	Tajriba guruhi (boshlang'ich)	Tajriba guruhi (yakuniy)	Nazorat guruhi (yakuniy)
Yuqori	13 %	43 %	18 %
O'rta	37 %	47 %	42 %
Past	50 %	10 %	40 %

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida yuqori darajadagi ekologik tarbiya ko'rsatkichi 13 foizdan 43 foizgacha oshgan, past daraja esa keskin

kamaygan (50 foizdan 10 foizgacha). Nazorat guruhida esa sezilarli o'zgarish kuzatilmadi.

Olingan natijalar pedagogik nuqtai nazardan shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirishda faol ta'lim metodlari, ko'rgazmalilik, amaliy faoliyat va hayotiy misollarga tayanish muhim ahamiyatga ega. Xususan, tabiat bilan bevosita muloqotga asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishda samarali ekani aniqlandi.

Muhokama jarayonida ma'lum bo'ldiki, ekologik ta'limni erta yoshdan tizimli ravishda tashkil etish o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ekologik madaniyati va xulq-atvorini ham rivojlantiradi. Bu esa kelgusida ekologik ongli, jamiyat va tabiat oldida mas'uliyatni his etuvchi shaxsni tarbiyalash uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarda ekologik ta'lim-tarbiyani samarali tashkil etishda ta'lim mazmuni bilan bir qatorda, qo'llanilgan metod va shakllar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida ekologik yo'naltirilgan interfaol usullarni qo'llash o'quvchilarning bilish faolligini oshirib, ularda tabiatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qildi.

Yakuniy natijalarni tahlil qilish jarayonida o'quvchilarning ekologik tarbiya darajasi quyidagi asosiy mezonlar asosida baholandi:

- ekologik bilimlar tizimliliigi;
- tabiatga nisbatan qadriyatli munosabat;
- ekologik me'yorlarga mos xulq-atvor va amaliy faoliyat.

Aniqlanishicha, tajriba guruhida mazkur mezonlar bo'yicha barqaror ijobiy o'zgarish kuzatildi. Ayniqsa, o'quvchilarning ekologik bilimlari hayotiy misollar bilan boyigani, atrof-muhitga daxldor muammolarni anglab yetishi va ularni hal etishga intilishi kuchaygani qayd etildi. Bu holat o'quvchilarda ekologik ongning shakllanayotganini ko'rsatadi.

Nazorat guruhida esa o'quvchilar asosan nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan cheklanib, ekologik faollik darajasida sezilarli o'sish kuzatilmadi. Bu esa

an'anaviy dars shakllarining ekologik tarbiyada cheklangan imkoniyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Muhokama jarayonida pedagogik adabiyotlarda keltirilgan ilmiy xulosalar bilan olingan natijalar o'zaro solishtirildi. Ko'plab tadqiqotlarda (ekologik ta'lim kontseptsionalari, barqaror rivojlanish ta'limi) ta'kidlanganidek, ekologik tarbiyani erta yoshdan boshlash shaxs ekologik madaniyatining shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari ham ushbu fikrni to'liq tasdiqlaydi.

Shuningdek, tajriba guruhida o'quvchilarning nutq faolligi oshgani, ekologik mavzularda mustaqil fikr bildirishga o'rgangani kuzatildi. Bu esa ekologik ta'limning faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmasdan, o'quvchilarning kommunikativ va ijtimoiy kompetentsiyalarini ham rivojlantirishini ko'rsatadi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim va ajralmas tarkibiy qismi ekanini yana bir bor tasdiqladi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, ekologik ta'limni tizimli, maqsadli va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish o'quvchilarning ekologik bilimi, ongi va madaniyatini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan pedagogik tizimning samaradorligi tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi qiyosiy tahlil orqali aniqlandi. Natijalarga ko'ra, interfaol metodlar, amaliy faoliyatga asoslangan mashg'ulotlar hamda tabiat bilan bevosita muloqotni ta'minlovchi ta'lim shakllari qo'llanilgan tajriba guruhida o'quvchilarning ekologik tarbiya darajasi yuqori ko'rsatkichlarga erishdi. Bu esa an'anaviy o'qitish usullari ekologik tarbiyani shakllantirishda yetarli emasligini ko'rsatdi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ekologik ta'limni boshlang'ich sinf bosqichidan yo'lga qo'yish o'quvchilarda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabat, ekologik me'yorlarga rioya qilish ko'nikmalari va barqaror ekologik xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qilishini isbotladi. Erta yoshdan shakllangan ekologik ong kelgusida jamiyat va atrof-muhit oldida mas'uliyatni his etuvchi, ekologik madaniyatli shaxs tarbiyasi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin: boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirish fanlararo integratsiya, ko'rgazmalilik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va amaliy faoliyatga tayangan holda tashkil etilgan taqdirda yuqori samara beradi. Mazkur xulosalar umumta'lim maktablarida ekologik ta'limni takomillashtirish, o'quv dasturlari va metodik qo'llanmalarni yangilashda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Abdurahmonov Q., Rahmonov A. Ekologik ta'lim va tarbiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Aliev A.A. Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Ashurova D.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik omillari // *Xalq ta'limi*. – 2021. – №4. – B. 45–49.
4. Babanskiy Yu.K. Pedagogika. – Moskva: Prosveteniye, 2018.
5. Vernadskiy V.I. Biosfera va noosfera. – Moskva: Nauka, 2017.
6. Davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim mazmuni va o'quv natijalari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, 2023.
7. Ibragimova M.N. Ekologik ta'limda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi // *Pedagogik mahorat*. – 2022. – №2. – B. 62–66.